ZOONOZ TERI LESHMANIOZI KASALLIGINING TABIIY O'CHOQLARINING EPIDEMIOLOGIK MONITORINGI

[1,2]BURIYEV A. Ya., [2]Murodov S. S., [3]SUVONOV J.
[1,2,3]Turon universiteti, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qo'mitasining Qashqadaryo viloyat boshqarmasi. Qarshi sh.

DOI: 10.67620/dermajournal.1730018

Zoonoz teri leyshmaniozi (ZTL) kasalligining Qashqadaryo viloyatida eng epidemik faol tabiiy o'choqlari mavjud bo'lib cho'l zonasidagi tabiiy o'choqlarning faolligi juda yo'qori. Bu tabiiy o'choqli hududlarda yashaydigan va ishlaydigan aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. So'nggi yillarda aholi orasida ZTL tashxisi bilan ro'yxatga olingan holatlar sonining ko'payishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. ZTLning epidemiologik kuzatuvi kasallikning tarqalishini kamaytirish va epidemik tusda avj olishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholash uchun tegishli epidemiologik va ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish muhim axamiyatga ega. Yo'qoridagilarni xisobga olib 2012-2025-yillarda viloyat axolisi orasida ZTL bilan og'rigan bemorlarning ma'lumotlari yordamida kasallikning tarqalishini epidemiologik tahlili o'tkazildi.

2012-yildan 2025-yilgacha jami 808 ta teri leyshmanioz bilan kasallangan bemor ro'yxatga olingan, ulardan 781 tasi (96,7%) zoonoz teri leyshmaniozi va 27 tasi (3,3%) antropanoz teri leyshmaniozi(ATL) bilan kasallangan. Tashxis barcha bemorlarda laboratoriya tekshiruvlari bilan tasdiqlandi. Jami ro'yxatga olingan bemorlarning 255(31,6%) nafarini 14 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qildi. ZTL bilan kasallangan bemorlar orasida 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ulushi 29,4%ni tashkil qildi, ATL tashxisi qo'yilgan bemorlar orasida bolalarning ulushi-92,6%ga teng bo'ldi.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda ZTL bilan kasallangan bemorlar sonining o'sishi kuzatildi. Bemorlar soni 2024 -yilda 2012-yilga nisbatan 7,6 baravarga ko'payganligi qayd etildi.

Statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 2012–2025 yillarda viloyatning ZTL tabiiy o'chog'lari mavjud bo'lgan mintaqasida joylashgan ma'muriy hududlarida 606 (77,6%) nafar bemor qayd qilingan. Jumladan, ZTL bilan kasallangan bemorlarning eng ko'p soni Nishon tumanida — 230 (29,4%) nafar, undan keyin Qarshi tumanida 91 (11,7%) nafar, G'uzor tumanida 78 (10,0%) nafar, Koson tumanida 61 (7,8%) nafar kuzatildi.

Viloyatning ZTL bo'yicha tabiiy o'chog'rlari mavlud bo'lmagan ma'muriy hududlarida yashovchi aholi orasida 175 (22,4%) nafar bemor qayd qilingan bo'lib, ro'yxatga olingan barcha holatlarda bemorlar kasallik qo'zg'atuvchisini tabiiy o'chogli hududlarda yuqtirganligi aniqlandi.

Keyingi yillarda ZTL epidemik jarayonining faollashuviga 2019-yilda sanitariya-epidemiologiya xizmatini tashkil qilish bo'yicha o'tkazilgan transformatsiya jarayonlarida parazitologiya bo'limlari tarkibidagi dezinstruktor, dezinfektor shtat birliklarining olib tashlanishining viloyat aholisi orasida ZTL kasalligining tarqalishiga ta'sirini baholash uchun 2012-2018 va 2019-2025 yillarda ZTL bilan kasallanish holatlari qiyosiy tahlil qilindi. 2019 yilgacha xizmatning yshbu kasallikga qarshi profilaktik tadbirlarni o'tkazadigan parazitologiya bo'limlari shtatlarida 230 nafardan ortiq dezinfektor va 35 nafardan ortiq dezinstruktor ish o'rinlari mavjud bo'lgan. Xozirda entomologiya guruxida dezinstruktor, dezinfektor shtatlari nazarda tutilmagan.

O'rganishlar viloyat aholisi orasida 2012-2018 yillarda ZTL tashxisi qo'yilgan 297 nafar bemor va 2019-2025 yillarda 485 nafar bemor hisobga olinganligini, ya'ni kasallanish darajasi birinchi davrga nisbatan 64%ga, jumladan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida 2 barobarga oshganligini ko'rsatdi. ZTLning tabiiy o'chog'lari mavjud ma'muriy hududlarda kasallikning o'sishi

75,5%ni, tabiiy o’chog’ mavjud bo’lmagan hudularda esa, tabiiy o’chog’li hududlarga borib kasallikni yuqtirganligi hisobiga 28,0%ni tashkil qildi. Ayniqsa, ZTLning tabiiy o’chog’lari mavjud Nishon tumanida kasallanish ko’satkichi 2,4 barobarga, Guzor tumanida 2,9 barobarga, Muborak tumanida 2,3 barobarga, Mirishkor tumanida-7,5 barobarga oshganligi kuzatildi. Tabiiy o’chog’li hududlarda ZTLning rezervuari bo’lgan katta dala qum kalamushlari (Rhombomys opimus) va kasallik qo’zg’atuvchisini yuqtiruvchi iskaptoparlar (Phlebotomus papatasi va Phlebotomus sergenti) ga qarshi dala deratizatsiyasi va dezinsektsiyasi tadbirlarining etarli darajada o’tkazilmaganligi epidemiologik vaziyatning yomonlashishiga olib keldi.

Xulosa. ZTLning tabiiy o'choqlarining faolligining davom etishi va kasallikning ko'payib borayotgani epidemiologik kuzatuvni kuchaytirishni, dezinfektsiya va deratizatsiya choralarini optimallashtirishni hamda tabiiy o’chog’li hududlarning SEO va JS bo’limlarining parazitologiya bo’linmalari tarkibida dezinfektor shtatlarini tiklash, mahalliy sog'liqni saqlash organlari va jamoatchilik ishtirokida keng qamrovli profilaktika dasturlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.